

Mamatova Shaxnoza

Nurobod tumani 38-maktab ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Jadid harakati 20-asrning boshlarida Turkiston hududida vujudga kelgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi xalqni ma’rifat bilan yoritish, zamonaviy bilimlarni tarqatish va milliy o‘zlikni anglashdan iborat edi. Jadidlar ma’rifatparvarlik faoliyati orqali o‘z zamonasining barkamol avlodini tarbiyalashga intildilar. Ular ta’limda milliy qadriyatlarni, til va madaniyatni saqlab qolish hamda yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga e’tibor qaratdilar.

Kalit so‘zlar: jadidlar, barkamol avlod, milliy qadriyatlar, zamonaviy bilimlar, pedagogika, ta’lim tizimi, tarbiyaviy yondashuvlar.

Аннотация: Движение джадидов возникло в начале XX века в Туркестане, и его главной целью было просвещение народа, распространение современных знаний и укрепление национальной идентичности. Джадиды стремились посредством своей образовательной деятельности дать образование всесторонне развитому поколению своего времени. Они сосредоточились на сохранении национальных ценностей, языка и культуры в образовании и оснащении молодежи современными знаниями.

Ключевые слова: молодежь, гармоничное поколение, национальные ценности, современные знания, педагогика, система образования, образовательные подходы.

Abstract: The Jadid movement emerged in the early 20th century in Turkestan, and its main goal was to enlighten the people, spread modern knowledge, and create awareness of national identity. The Jadids sought to educate a harmonious generation of their time through educational activities. They focused on preserving national values, language, and culture in education, and equipping young people with modern knowledge.

Key words: Jadids, harmonious generation, national values, modern knowledge, pedagogy, educational system, educational approaches.

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o‘rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma’rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g‘oyalar avvalambor yosh avlodni milliy, ma’naviy hamda g‘oyaviy jipslashtirish, ularni o‘lka taqdiriga dahldorlik tuyg‘usi bilan yashashga jalb etish kabilarda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g‘oyaviy-nazariy yo‘nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho‘lponlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan borishni taklif etganlar. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmusxoja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi". Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlarini ta'kidlaydilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o'quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo dokonlarini qattiq tanqid ostiga oladi.³ Uning fikricha, bunday do'konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo'lib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog'lom o'stirishga chorlaydi. Sog'lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o'sib ulg'ayib, o'qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, xuquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxislar yetishib chiqishini orzu qilgan. Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyatdarajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti "ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, O'rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi".

Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyatdarajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

oqchasidan bolalarni., talabalarini Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti "ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, O'rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalaraga yordam ishlarini boshqarar edi". an'alarimizni bilish degani. Agarki har qaysi odam kechagi kunni yaxshi biladigan bo'lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi. O'zingiz eslang, bir vaqtlar, kommunistik mafkura zamonida milliy urf-odatlar, an'analarni rivojlantirish u yoqda tursin, hatto janozaga borish mumkin emas edi. Qarang, qanday og'ir zamon edi! Bu haqiqatni bolalarimizga to'g'ritushuntirib bersak, tarix bilan, haqiqat bilan qurollanib olsak, hayotimizni shunday to'g'ri yo'lga qo'yamizki, uning aniq manzillari barchaga ayon bo'ladi, butun xalqimizga kuch-g'ayrat bag'ishlab turadi. Bu - erkin, ozod, tinch va barqaror, obodva farovon hayot demakdir. Jadidlar harakatining asosiy maqsadi xalqni ma'rifat bilan ta'minlash, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish edi. Ular ta'lim tizimini isloh qilish, yangi metodlarni joriy etish va o'qituvchilarning malakasini oshirishga e'tibor qaratdilar. Jadidlar o'z asarlarida ilm-fan, ona tili, adabiyot va san'atni muhim ahamiyatga ega deb hisobladilar. Ularning fikricha, ma'rifatli inson jamiyatning taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Barkamol avlod tarbiyasi masalasi Jadidlar faoliyatida alohida o'rin tutadi. Ular yosh avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarni, an'analarni va zamonaviy bilimlarni birlashtirishga harakat qildilar. Barkamol avlod — bu nafaqat bilimli, balki axloqiy jihatdan yetuk, vatanparvar insondir. Jadidlar tarbiyada ijodkorlik, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuvni rivojlantirishga alohida e'tibor berdilar. Jadidlar ta'lim sohasida islohotlar o'tkazish orqali xalqning ma'rifatini oshirishga intildilar. Ular madrasalarda yangi uslub va metodlarni joriy etish, o'quv dasturlarini yangilash va zamonaviy fanlarni o'qitishni taklif qildilar. Ma'rifatparvarlar o'z maktablarida o'zbek tilini asosiy dars tili sifatida belgilab, ona tilining ahamiyatini oshirishga harakat qildilar. Jadidlar milliy qadriyatlarni saqlash bilan birga, zamonaviy bilimlarga ham e'tibor qaratdilar. Ularning fikricha, barkamol avlod tarbiyasi uchun milliy o'zlikni saqlab qolish zarur. Shuningdek, ular zamonaviy texnologiyalarni, ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirishni ham muhim deb hisobladilar. Bu yondashuv yosh avlodni global miqyosda raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi. Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari va barkamol avlod tarbiyasi masalalari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Ularning faoliyati nafaqat o'z davrida, balki hozirgi kunda ham ta'lim tizimini rivojlantirish va yoshlarni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari va barkamol avlod tarbiyasi masalalariga e'tibor berish orqali biz kelajak avlodning ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishini ta'minlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Karimov I.A. Biz kelajagimiznio'z qo'limiz bilan quramiz.T:O'zbekiston.1999.B.385

2. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son
3. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/jadidlar-faoliyatida-ma-rifatparvarlik-va-barkamol-avlod-tarbiyasi-masalalari/viewer>

JADIDCHILIK HARA-KATI VA UNING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Abduraimova Muhayyo Raxmatullayevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Ona tilining o‘zligiga va uning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan jadidchilarning roli haqida so‘z yuritiladi. Jadidchilik harakati o‘z davrida ta’lim, ma’rifat, madaniyat va adabiyot sohalarida yangiliklar yaratishga intilgan. Ularning asosiy maqsadi – millatning tafakkurini, o‘zligini va ongini yangilash, zamonaviy bilimlarni qabul qilishga undash edi. Jadidchilarning ona tiliga bo‘lgan munosabati va uning rivojlanishiga bo‘lgan hissalar zamonaviy adabiyotda alohida e’tibor qozonadi. Ushbu maqolada jadidchilarning ona tilini himoya qilishdagi roli, ularning tilga bo‘lgan yangi yondashuvlari va adabiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Jadidchilarning yozgan asarlari, tashkil etgan ta’lim muassasalari, adabiyotga qo‘shgan yangiliklari bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik harakati, ona tili, adabiyot, ta’lim, milliy o‘zlik, ma’rifat, madaniyat, yangi yondashuvlar, til rivojlanishi.*

Kirish

Ona tili har bir millat uchun ayniqsa qadrlanadigan boylikdir. Bu til nafaqat insonlarni birlashtiruvchi omil, balki jamiyatning madaniy, ilmiy, va ma’naviy rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Jadidchilik harakati o‘z davrida, ayniqsa, tilni rivojlantirish, ilmiy- pedagogik metodlarni joriy etish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Jadidchilar tilni faqat xalqni birlashtiruvchi vosita sifatida ko‘rmagan, balki uning ilmiy va madaniy imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilganlar.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda, xususan, O‘zbekiston hududida kuchayib, ta’lim sohasida yangi yondashuvlarni kiritish orqali ona tilini rivojlantirishga alohida e’tibor berdi. Jadidchilik harakati milliy ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan bo‘lib, ona tilini rivojlantirish, uni ilmiy va madaniy jarayonlarda qo‘llashga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Ona tilining ahamiyatini tushunish va uni rivojlantirish maqsadida jadidchilar o‘zlarining faoliyatlarini, asarlarini, ta’lim muassasalarini tashkil etish orqali amalga oshirishdi. Ular ta’lim tizimida milliy tilni asosiy o‘qitish vositasi sifatida ishlatish zarurligini ta’kidlashdi va ilmiy-